



FORMATION AND DEVELOPMENT OF SUFISM TERMINOLOGY IN CENTRAL ASIA

Avazbek Ashiraliyevich Vakhidov
*Candidate of philological sciences, docent
 TSUOS
 Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Sufism, sect, development, teaching, stage, Kubrovism, Yassavism, Nashkbandism.

Received: 15.05.24

Accepted: 17.05.24

Published: 19.05.24

Abstract: This article discusses some of the changes in the terminology of Sufism during its formation and development, as well as the factors that influenced its formation. The expansion of the process and development of Sufism literature, which began with the Quran and hadiths of the Prophet (peace and blessings of Allah be upon him), the emergence of religious mazhabism and its historical correlations, the peculiarities of the history of Sufism in the Irfon stage, the emergence of the Khojagon doctrine, which became one of the most important factors in the formation of Sufism terminology in Central Asia, the spread of the Yassawi doctrine, the influence of the modern Naqshbandi movement after the 17th century (Mujaddidism movement), and the emergence of the Qalandar doctrine. In addition, terms of Persian literary space, Sufi terms in works of fiction and their translations into foreign languages are used.

MARKAZIY OSIYODA TASAVVUF TERMINOLIGIYASINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI

Avazbek Ashiraliyevich Vaxidov
*Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
 TDSHU
 Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: tasavvuf, tariqat, taraqqiyot, ta'lilot, bosqich, so'fiy, kubroviylik, yassaviylik, nashqbandiylik.

Annotatsiya: Maqolada tasavvuf terminologiyasi o'zining shakllanish va taraqqiyot davomida bir necha bosqichlarni, uning shakllanishiga jiddiy sabab bo'lgan va

ta'sir ko'rsatgan omillar yoritiladi. Qur'oni karim va Payg'ambar (s.a.v.) hadislaridan boshlangan jarayon va tasavvuf adabiyotining taraqqiyoti, dindagi mazhabchilikning vujudga kelishi va tariqatlanish munosabatlari, tasavvuf tarixidagi Irfon bosqichining xususiyatlari, Markaziy Osiyoda tasavvuf terminologiyasining shakllanishida muhim omillardan bo'lgan Xojagon tariqatining vujudga kelishi, Yassaviylik tariqatining kengayishi, Naqshbandiylik ta'lilotining XVII asrдан keyingi yangilanishining ta'siri (mujaddidiylik harakati) va Qalandariylikning vujudga kelishi kabi omillar ham keltiriladi. Bundan tashqari, terminlarning forsiy adabiyot doirasida qo'llanilishi, badiiy asarlardagi tasavvufiy istilohlar, ularning xorijiy tillarga tarjima etilishi bilan bog'liq manbalar tilga olinadi.

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ТЕРМИНОЛОГИИ СУФИЗМА В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Авазбек Аширалиевич Вахидов

Кандидат филологических наук, доцент

ТГУВ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Суфизм, развитие, учение, этап, Кубровизм, Яссавизм, Нашкбандизм

Аннотация: В статье рассматриваются некоторые изменения в терминологии суфизма в период ее становления и развития, а также факторы, повлиявшие на ее формирование. Расширение процесса и развитие литературы суффизма, начавшегося с Корана и хадисов Пророка (мир ему и благословение Аллаха), возникновение религиозного мазхабизма и его исторических корреляций, особенности истории суфизма в Ирфонском этапе, возникновение Ходжагонского учения, ставшего одним из важнейших факторов формирования терминологии суфизма в Средней Азии, распространение Яссавийского учения, влияние современного движения Накшбандийского учения после XVII века(движение моджаддиизма), возникновение Каландарского учения. Кроме того, используются термины персидского литературного пространства, суффийские термины в художественных произведениях и их переводы на иностранные языки.

KIRISH

Mumtoz adabiyot va til masalalarini tasavvuf adabiyotidan ajratib tadqiq qilib bo’lmagani kabi adabiy manbalarni ham tasavvuf terminologiyasini o’zlashtirmay turib anglab bo’lmaydi. O’zining ilk manbalarini islomiy adabiyotdan olgan tasavvuf adabiyoti Markaziy Osiyoda ham keng taraqqiyot yo’liga kirdi. Tasavvuf adabiyoti nafaqat arab tilida, balki fors va turk tillarida yaratilgan manbalar asosida ham taraqqiy topdi. Markaziy Osiyoda yetishib chiqqan Yusuf Hamadoniy, Xoja Ahmad Yassaviy, Shayx Najmuddin Kubro, Abdulkholiq G’ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy singari buyuk mutasavviflar fors va turk tillarida asarlar bitib, o’zlarining falsafiy qarashlarini dunyoga ma’lum qildilar. Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab singari mumtoz adabiyotimiz ulug’lari tasavvuf adabiyotining taraqqiyotida ham benazir xizmat qildilar.

Bu adabiyotning Markaziy Osiyoda yaratilgan namunalarini o’rganishda o’ziga xos tarixiy-lisoniy xususiyatga ega bo’lgan terminologizatsiya jarayonlarini kuzatish mumkin. Tasavvuf adabiyotini o’rganish yangi bosqichga qadam qo’yayotgan bir davrda bu adabiy manbalarning terminologik jihatlarini o’rganish muhim ilmiy ahamiyat ham kasb etadi. Alovida qayd etish lozimki, tasavvuf adabiy manbashunosligining o’rganilishi umuman tasavvuf adabiyoti va xususan, tasavvuf terminologiyasining o’rganilishiga ham o’z ta’sirini ko’rsatgan. Shu jihatdan qator Eron (Badi’uzzamon Furo’zonfar, Abulhasan Zarrinko‘b, Ali Dashtiy, Jamol Humoiy, Shafi’ Kodkaniy, Murtazo Behishtiy, Muhammad Iste’lomiy, Taqiy Purnomdoriyon, Nosiriddin Sohibzamoniy va Abdulkarim Siro’sh), Turkiya (Fuod Ko’prulu, Mehmed Ali Ayniy, Agah Sirri Levend, Abdulboqi Gulpinarli, Kamol Eraslan) va G’arb mamlakatlari olimlari (R. Nikolsson, X. Ritter, J.K.Ferbervagel, A.Shimmel, Ye.A.Braun, H.Ette, H.Messe, B.Spuler kabilar)ning ishlari diqqatga sazovordir. Ularning asarlarida tasavvufiy istilohlarning mazmuni, ma’no qatlamlari, leksik xususiyatlari va semantik strukturasi tegishli darajada o’rganilgan. Zikr etilgan terminologizatsiya jarayonlarining tarixiy-lisoniy xususiyatlari turli davrlardagi ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, adabiy va ayrim hollarda geosiyosiy jarayonlar bilan uzviy bog’liqlikda shakllanib borgan. Aynan shu mazmunda tasavvuf terminologiyasining Markaziy Osyo mintaqasida shakllanish jarayonlari ham bir qator bosqichlarni o’z ichiga oladi. Mazkur bosqichlarni quyidagi tartibda ajratish mumkin.

ASOSIY QISM

Dastlabki bosqichda Markaziy Osiyoga islomning kirib kelishi va o’rnashishi bilan birga islomiy terminlar ham faol qo’llanish davriga kirdi. Tasavvuf adabiyoti o’zining ilk manbalarini islomiy adabiyotdan olgani uchun ham bu jarayonda diniy terminologiya asosidagi tasavvufga oid terminlar, joy va shaxs nomlari adabiy iste’molga kiritildi. Bu davr Markaziy Osiyodagi somoniylar, qoraxoniylar, g’aznaviylar va saljuqiylar kabi ilk xonliklar davriga, ya’ni IX-XII asrlarga to’g’ri keladi. Bu davrga oid manbalardan Ali ibn Usmon al-Jullabiy Hujviriy (vafotи

1074)ning “Kashfu-l-mahjub li arbobi-l-qulub” (“Poklanish yo’llarining kashf etilishi”) asarida ushbu yo‘nalishdagi bir qator tasavvufiy istilohlar tilga olingan. Masalan, faqr, muomalat, muraqqot, safvat, malomat, ahli suffa singari bevosita tasavvufiy holatning ifodasi bo‘lgan terminlarni talqin qilish bilan birga Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) xonardoniga tegishli shaxslar, sahabalar va tobe'inlar (64 ta) haqida ham ma‘lumot berilgan. Bulardan tashqari, asarning muhim ilmiy qimmatini ta‘minlagan jihatlardan biri shundaki, tasavvufdagi o‘n bir ilk tariqat va silsilalar haqida ham ma‘lumot berilgan. Ular: muxosibiylik, kassariylik, tayfuriylik, junaydiylik, nuriylik, sahliylik, hakimiylik, xarraziylik, xafifiylik, sayyariylik va hulutiylidkan iborat. Tariqatlar tarixi bilan mashg‘ul bo‘lgan g‘arb olimlari R.Nikolson, E.E.Bertels, A.Arberri, J.Trimingem, Devin De Uis ishlarida garchi bu mo‘tabar manba tilga olinsa-da, unda bayon qilingan ilk tariqat va silsilalar tarixi jiddiy o‘rganilmagan. Hujviriyning yozishicha, qalb ahli sirlarining kashf etilishi Allohnitanish ma‘rifatida bir qancha hijob (to‘siq)larning olinishi bilan bog‘liq. Ular Allohnini bilish ma‘rifati, tavhid, iymon, tahorat, salot, zakot, savm, haj va ahli islom bilan muloqotdir. Bu hodisalarning o‘ninchisi sifatida Hujviri hazratlari bir qancha irfoniy istilohlarning sharhlarini anglatgan. Ular: hol va vaqt, maqom va tamkin, muhozirat va mukoshafat, qabz va bast, uns va haybat, qahr va lutf, nafiy va isbot, muhodisat va musomarat, ilm va ma‘rifat, shariat va haqiqatdir. Muallif o‘n birinchi hijob (to‘siq) sifatida sama‘ni keltirib, unda amal qilinadigan holatlar sifatida vajd, vujud, tavajjudni alohida istiloh sifatida farqlab ko‘rsatadi. Ko‘rinadiki, ushbu manba nafaqat tasavvuf tariqatlari va ilk mutasavviflar tarixi, balki so‘fiy terminologiyaning shakllanishida muhim bosqich vazifasini o‘taydi. Ushbu risola ilk tasavvufiy terminologiyaning shakllanish manbasi sifatida qaralishi bilan bir qatorda asarda keltirilgan istiloh va atamalarni keyingi davr allomalarining bu sohadagi ishlari bilan qiyosiy o‘rganish o‘zbek tasavvuf adabiyoti uchun ham, forsiy tildagi so‘fiy manbalar talqini uchun ham muhim ahamiyatlidir. Markaziy Osiyoda tasavvuf ta’limotining shakllanishida Yusuf Hamadoniy (1048-1141) tomonidan Buxoroda asos solingan tasavvufiy maktab xarakterli o‘rin tutadi. Shayx Hamadoniyning tasavvuf tarixidagi xizmatlaridan yana biri Xoja Abdulloh Barraqiy, Xoja Hasan Andokiy, Xoja Ahmad Yassaviy va Xoja Abdulkholiq G‘ijduvoniy kabi ulug‘ mutasavvif shogirdlarning etkazib berilishidir. Ma‘lumki, O‘rtalik Osiyoda shakllangan tariqatlar ma‘lum ma’noda Shayx Najmiddin Kubro, Xoja Ahmad Yassaviy va Abdulkholiq G‘ijduvoniy faoliyatlari bilan bog‘liq. Shunday ekan, kubroviylik, yassaviylik va naqshbandiylik kabi tariqatlarning shakllanishi tasavvuf terminologiyasining kengayishiga va yangi bosqichga ko‘tarilishiga sabab bo‘lgan.

Kubroviylik tarqatining shakllanishi uning asoschisi Shayx Najmiddin Kubro (1145-1221) faoliyatiga to‘g‘ri keladi. Kubroviylik ayrim manbalarda zahabiylilik deb yuritilgan. Bu ta’limotning nazariy asoslari «Al-usul al-ashara», «Favotihu-l-jamol» kabi risolalarda aks etgani, ushbu risolalarida to‘rt mavjudlik haqiqati: Vujud, Qalb, Ruh va Vijdon kabi tushunchalar tariqat

mohiyatini aks ettingani va bu terminlarning faollashuvi bilan tariqat faoliyatining kengayganini ham unutmaslik lozim bo‘ladi. Kubraviylik tariqatidan, J.Trimingemning yozishicha, firdavsiylik, rukniylik, nurbaxshiylik va boshqa tariqatlar ildiz otgan. Prof. N. Komilov esa, «Kubraviyadan firdavsiya, nuriya, rukniya, hamadoniya, ig‘tishoshiya, nurbaxshiya kabi toifalar o‘sib chiqqan» deya ta‘kidlaydi. Demak, birgina tariqatning shakllanishi qator ilmiy va ma’naviy jihatlarning va ularning in‘ikosi sifatida yuzlab terminlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Xuddi shu xulosani yassaviylik (jahriylik) tariqatiga nisbatan ham qo‘llash mumkin. Faqat yassaviylikka doir terminologiyaning taraqqiyotida ikkinchi, ya’ni sezilarli bosqich O‘rta Osiyoda XVI asrdan keyin yuzaga kelganini ta‘kidlash lozim. Chunki Muhammad Shayboniyxon (1451-1510) va o‘zbekxonlar sulolasining davlat tepasiga kelishi bilan yassaviylik yana qayta jonlandi va mamlakat bo‘yicha hukmron doiralarda asosiy tariqat o‘rnini oldi. Bu davrda yassaviylikka doir o‘nlab asarlar yaratildi, avvalgilari qayta ko‘chirildi, hatto bizgacha etib kelgan yassaviy tariqatiga doir manbalarning deyarli ko‘philigi mana shu davr mahsuli ekanligini unutmaslik kerak.

Xojagon yoki naqshbandiylik tariqati Xoja Abdulkholiq G‘ijduvoni (1103 y. tug‘.) faoliyati bilan vujudga kelgan. Xojagon tariqatining vujudga kelishi va terminologik omillarining shakllanishi bevosita ushbu ta‘limotning asosiy qoidalari bilan bog‘liq. Bu qoidalar Faxruddin Ali Safiyning «Rashahotu ayni-l-hayot», Xoja Muhammad Porsoning «Faslu-l-xitob» asarlarida aks etgan va keyinroq naqshbandiylik nomi bilan mustaqil tariqat sifatida e’tibor topgan ekan, ushbu holatga tasavvuf terminologiyasining shakllanishi va taraqqiyoti bilan bog‘liq muhim omil deb qaramoq lozim. Yusuf Hamadoniy tomonidan asos solingan qoidalar rashha (tomchi)larda aks etgan ekan, dastlabki xush dar dam, nazar bar qadam, safar dar vatan, xilvat dar anjuman kabi terminlar Abdulkholiq G‘ijduvoni tomonidan yodkard, bozgasht, nigohdosht, yoddosht tushunchalari bilan boyitilgan. Xoja Bahouddin Naqshband ta‘limoti tufayli ushbu tariqatda vuqufi zamoni, vuqufi adadiy, vuqufi qalbiy kabi qoidalarining shakllanishi terminologiyaning taraqqiyotida ham muhim bosqich sanaladi. Chunki terminlar ifoda etayotgan hodisa, qoida, holat va boshqa jarayonlartasavvuf adabiyotining yangilanishiga olib keladi. Tasavvuf adabiyotining taraqqiyoti esa, o‘z-o‘zidan insoniyat ma’naviyatining rivojlanishini belgilovchi omillardandir. Shunday ekan, tasavvuf terminologiyasining shakllanishi va taraqqiyotiga ham xalq ma’naviyatining yuksalishiga sabab bo‘ladigan omillardan biri deb qaramoq lozim.

Markaziy Osiyoda tasavvuf terminologiyasining taraqqiyot omillari xususida so‘z ketar ekan, xuddi yassaviylik tariqatining kengayishiga va uzoq yashab kelishiga shayboniylar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy va ma’naviy harakatlar sababchi bo‘lgani kabi naqshbandiylik ta‘limotining XVII asrdan keyingi yangilanishi uning nafaqat kengayishiga, balki jahon bo‘ylab eng chuqur ildiz otgan ta‘limotlardan biriga aylanishiga sabab bo‘lgan. Mujaddidiylik yoki naqshbandiylikning yangilanish davri So‘fi Ollohyor (1644-1721) va uning asarlarida o‘z aksni

topgan. Uning «Maslaku-l-muttaqin» («Taqvodorlar maslagi») asari tasavvufshunoslikda naqshbandiylikning yangilanish jarayoni bilan bog‘liq nuqta sanaladi. Ushbu asar haqida risola e’lon qilgan S.Raf’iddinovning qayd etishicha, Allohning sakkiz subutiy sifati: hayot, ilm, qudrat, basar, sam’, iroda, kalom, takvin ayni asar orqali naqshbandiylik e’tiqodi bilan bog‘lab tushuntiriladi. Shuningdek, So‘fi Ollohyorning «Sabotu-l-ojizin», «Murodu-l-orifin», «Siroju-l-ojizin», «Najotu-l-tolibin» va «Maxzanu-l-mute'in» asarlarida ham bu jarayon o‘z aksini topgan.

Ma'lumki, xojagon yoki naqshbandiylik ta'limotining asosiy asarlari fors tilida yaratilgan. Shunday ekan, tasavvuf terminologiyasining shakllanishida ushbu tildagi so‘zlarning o‘rni va terminlarning forsiy adabiyot doirasida juda keng miqyosda qo‘llanilishi va yuzlab risolalar, lug‘atlar va boshqa manbalarning vujudga kelishi tasavvuf terminologiyasining taraqqiyotiga tegishli bo‘lgan navbatdagi zaruriy omillardan biri sanaladi.

Ikkinci bosqich “Tasavvuf tarixida Irfon bosqichi” (XII asr oxiridan XIV asrgacha davom etgan) deb ataluvchi davr bilan uyg‘un holda shakllangan. Irfon bosqichini tasavvuf ta'limoti va adabiyotining yuksak taraqqiyotga erishgan davrlaridan biri deb hisoblanadi. Bu davr terminologiyasida tasavvufning ruhiy, ilmiy-ma'rifiy va ma'naviy asoslari shakllandi. Imom G‘azzoliy, Farididdin Attor va Jaloliddin Rumiy asarlarida tasavvufning nazariy asoslari yaratilish bilan birga uning mohiyatini aks ettiruvchi terminologiya shakllandi. Tavhid, fano, tajalliy, vahdati vujud va vahdati mavjud kabi terminlarning muayyan ilmiy yo‘nalish kasb etishi bu davrning xarakterli xususiyati sifatida ko‘zga tashlanadi. Bu terminologik jarayon haqida maxsus adabiyot yaratilmagan bo‘lsa ham ayni davr tadqiqotchilari N.Komilov, O.Usmonov, B.Bobojonov ishlarida masalaga oid ayrim fikrlarni kuzatish mumkin. Bu davrning milodiy X-XIII asrlarga to‘g‘ri kelishi va uning tasavvuf tarixidagi mumtoz davr sifatida qabul qilinishi prof. N. Komilovning asarlarida izchil asoslangan. Mana shu davrda tasavvufning ruhiy (ruhoniy), ilmiy-ta'limiy va amaliy asoslari shakllangani tufayli bir qator terminlarning shakllanishi Irfon bosqichining mahsuli sifatida qaralishi lozim. Shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat kabi bosqichlar va unga erishilish yo‘lidagi etti maqom: tavba, vara', zuhd, faqr, sabr, tavakkul, rido hamda tasavvufdagi hol (ahvol) bayonidagi holatlar: qurb (yaqinlik), mahabba (sevgi), xavf (xatar), raja' (umid), shavq (ehtiros), uns (do'stlik), itma'inna (qalb osoyishtaligi), mushohida (idrok) va yaqin (ishonch) terminlari shu davrda shakllaganini unutmaslik lozim. Irfon bosqichining tasavvuf tarixida muayyan o‘rin olishida va kelgusi taraqqiyotga nisbatan zarur omil bo‘lishida Zaynuddin Muhammad G‘azzoliy (“Kimiyoj saodat”, “Ixyoi ulum ad-din”), Ibn Arabiy (“Futuhoti Makkiyya”), Farididdin Attor (“Tazkirat ul-avliyo”, “Mantiq ut-tayr”), Mavlono Jaloliddin Rumiy (“Fihi ma fihi”, “Masnaviye ma'naviy”) kabi mutasavviflarning faoliyatini alohida tilga olish kerak.

Mana shu davrda Markaziy Osiyoda ham tariqatlanish jarayoni kuzatiladi. Yusuf Hamadoniy ta'limotiva Abdulkholiq G'ijduvoni faoliyati bilan bog'liq Xojagon tariqati, Xoja Ahmad Yassaviy asarlari bilan bog'langan jahriya, ya'ni yassaviylik tariqatining mustaqil tariqat sifatida shakllanishi tasavvuf terminologiyasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xorazmda Shayx Najmuddin Kubro asos solgan qubroviylik tariqatlarida umumiy mohiyatni aks ettirgan terminlar bilan bir qatorda ayrim tariqatlarga oid terminologiya shakllandi. Bu yo'nalishda jahriya, shariat, tariqat, ma'rifat tushunchalariga yassaviylik alohida tantanavor, oshkoraliq ruhi bilan qaragan bo'lган, xojagon tariqati bilan bog'liq nazar bar qadam, xush dar dam, xilvat dar anjuman, yoddosht, bozagash singari tushunchalar tasavvuf terminologiyasidan mustahkam o'rin oldi. XIII asrdan boshlangan bu terminologizasiya jarayoni XV asr boshlariga qadar davom etdi. Markaziy Osiyoda tasavvuf adabiyotining shakllanishini o'rgangan olimlar I.Haqqul, S.Olim, A.Abduqodirov ishlarida bu xil terminlarga munosabat ham uchraydi.

Tasavvuf terminologiyasining Markaziy Osiyoda badiiy adabiyotga ko'chishi bilan bog'liq bosqich mutaxassislar e'tirofiga ko'ra Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa tasavvuf adabiyotining yirik vakillari ijod qilgan temuriylar davri adabiyoti hisoblanadi. Bu davrda xuddi Irfon davridagi forsiy adabiyot singari turkiy yozma adabiyotda ham tazkiratul avliyo, manoqib, maqomot, munojot kabi janrlar vujudga keldi. Bu jarayonda faqat badiiy ma'no tashigan janriy atamalar ham endi tasavvuf adabiyotining taraqqiyotiga xizmat qila boshladi. O'zbek navoiyshunos olimlari A.Qayumov, A.Rustamov, S.G'anieva va boshqa tadqiqotchilarining ishlari misoldida birgina Navoiy ijodiyotining terminologik manbalariga e'tibor qaratish mumkin. Badiiy adabiyotdagi g'azal, ruboiy, doston, fard kabi janrlarda ham tasavvufiy adabiyot namunalari yaratildi. Ayrim yirik asarlarning muqaddimalarida uchragan hamd, na't, tavhid, munojot singari an'anaviy boshlanmalar ham ma'lum ma'noda tasavvuf terminologiyasining taraqqiyotiga xizmat qila boshladi.

XULOSA

Tasavvuf terminologiyasi o'zining shakllanish va taraqqiyot davomida bir necha bosqichlarni, uning shakllanishiga jiddiy sabab bo'lган va ta'sir ko'rsatgan omillarni boshdan kechirdi. Bunda zikr etilgan omillarning mazkur Terminologik plast shakllanishiga chambarchas bog'liq holda ta'sir o'tkazganini doimo nazarda tutish kerak. Qur'oni karim va Payg'ambar (s.a.v.) hadislardan boshlangan jarayon va tasavvuf adabiyotining taraqqiyoti, dindagi mazhabchilikning vujudga kelishi va tariqatlanish munosabatlari, tasavvuf tarixidagi Irfon bosqichining xususiyatlari, Markaziy Osiyoda tasavvuf terminologiyasining shakllanishida muhim omillardan bo'lган Xojagon tariqatining vujudga kelishi, Yassaviylik tariqatining kengayishi, Naqshbandiylik ta'limotining XVII asrdan keyingi yangilanishining ta'siri (mujaddidiylik harakati) va Qalandariylikning vujudga kelishi kabi omillar ham hisobga olinishi zarur. Bundan tashqari,

terminlarning forsiy adabiyot doirasida qo‘llanilishi, badiiy asarlardagi tasavvufiy istilohlar, ularning xorijiy tillarga tarjima etilishi bilan bog‘liq manbalargagina tayanish lozim.

Demak, tasavvuf terminologiyasi Markaziy Osiyoda X-XV asrlar davomida shakllandi va o‘zining yuksak taraqqiyotiga erishdi. Bu ilmiy jarayonni atroflicha o‘rganish o‘zbek filolog olimlarining zimmasidagi mas’uliyatlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abul Xasan Djullabi Ali al-Xudjviri. Kashf al-maxdjub. – L.: 1926; Karamatov X.S. Asketicheskie i sufiyskie techeniya v Xorasane. V kn.: Iz istorii sufizma: Istochniki i sosialnaya praktika. – T.: Fan, 1991. – S.27-47; Xudjviri. Kashful maxjub. Otkritie skritogo. – M.: EKSMO, 2006.
2. Ал-Худжвири. Раскрытие скрытого. Старейший персидский трактат по суфизму. – М.: Единство, 2004. – С. 88-158.
3. Бертельс Евгений Эдуардович. Суфизм и суфийская литература. – М.: 1965. - С.38.
4. Девин Ди Уис. Маша’их-и турк и Хаджаган: переосмысление связей между суфийскими традициями Йасавийя и Накшбандийя / Суфизм в Центральной Азии. – М.: Наука, 2002. - С. 211-224.
5. D. De Weese. The Masha’ikh-i Turk and the Khojagan: Rethinking the Links Between the Yasavi and Naqshbandi Sufi traditions. Journal of Islamic Studies.vol.7 Number 2 july 1996. - P.187.
6. Komilov N. Najmuddin Kubro. Risola. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1995. – B.29.
7. Komilov Najmuddin. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. 1 kitob. – T.: 1999. – B. 57.
8. Tasavvufiy hayot. – T.: Movaraunnahr, 2004. –B.11; Komilov N. Najmuddin Kubro. Risola. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1995. – B.29.
9. Тримингэм Ж. С. Суфийские ордены в Исламе (под ред., предисл. и примеч. О.Ф. Акимушкина). – М.: Наука, 1989. – С. 16.
10. Hamidullo. Boltaboevning “Avval Qur’oni karim, sunnatda tasavvuf” maqolasida bu tariqatlar maqbul (qabul qilingan) va mardud (rad etilgan) tarzida tasnif qilingan holda qo‘llanilgan. Qarang: Islom tasavvufi manbalar. Tasavvuf nazariyasи va tarixi (ilmiy majmua). – T.: O‘qituvchi, 2005. – B. 13.
11. Hasaniy Mahmud, Razzoqova M. Xojagon tariqati va Xoja Hasan Andoqiy. – T.: 2003. – B.13.
12. Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu ayni-l-hayot. / Tarjimon Domla Xudoybergan ibn Bekmuhammad. (Nashrga tayyorlovchilar: Mahmud Hasaniy, Bahriiddin Umrzoq) – T.: Abu Ali ibn Sino, 2004. - B.85-265.
13. Shayx Najmuddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: Movaraunnahr, 2004. –B.11.
14. Yusuf Hamadoniy. Rutbut ul-hayot. – T.: 1998
15. “Yassaviylik tariqati manbalarida (“Faqrnama”, “Devoni hikmat») terminologiya masalalari” maqolamizda maxsus to‘xtalganimiz uchun fikrni kengroq davom ettirish hojat bo‘lmasa kerak. Q: TDShI professor-o‘qituvchilari konferensiyasi materiallari. – T: TDShI, 2009, B.29-32